

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov**

Gulxayri (*Althaea officinalis L.*) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati ..... 117

**BIOLOGIYA****Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili  
(Shimoliy Farg'ona misolida) ..... 124

**K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova,  
S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov**

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus*  
(green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid ..... 132

**Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva**

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens L.*) o'simligining biokimyoviy xossalari ..... 140

**F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov**

Reaktiv artritning genetik jihatlari ..... 143

**M.R.Shermatov**

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqa notli hasharotlarining  
(insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili ..... 147

**K.Z.Yakhyeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva**

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari ..... 154

**M.A.Raximov**

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlardan samarali foydalanish ..... 158

**M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva**

Genining polimorfizmi atopik dermatitda ..... 162

**G.M.Zokirova**

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujafilina* (Del Guercio, 1909) shirasining  
(Homoptera, Lachnidae) biologiyasi ..... 166

**E.A.Botirov**

Janubiy Farg'onaning Agrotis avlodni tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari ..... 170

**G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullayev**

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (Xanthorrhoeaceae)  
o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari ..... 176

**F.M.Abduvaliyeva, Sh.S.Xushmatov**

Andijon shahrida joylashgan №1-son mакtab o'quvchilarining (1-11 sinf)  
anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili ..... 182

**GEOGRAFIYA****Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik  
tadqiqotlarning zarurati ..... 187

**ILMIY AXBOROT****G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini  
rivojlantirishni o'rganish ..... 192

**N.A.Sharopova**

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini  
mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi ..... 196

**O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova**

Ta'lrim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini  
maple dasturida topish ..... 199

**D.O.Qarshiyeva**

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kuest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish  
kompetentligini rivojlantirish ..... 203

**G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva**

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish ..... 208

**OSMON VA YER TUSHUNCHALARINING QIYOSIY SEMANTIK TADQIQI****СРАВНИТЕЛЬНОЕ СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПОНЯТИЙ НЕБО И ЗЕМЛЯ****A COMPARATIVE SEMANTIC STUDY OF THE CONCEPTS OF HEAVEN AND EARTH****Mamarasulov Akmaljon Mamatojiyevich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Mamarasulov Akmaljon Mamatojiyevich**

– Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada "Osmon", "Yer", tushunchalari ishtirok etgan iboralar qiyosiy o'rganilib, milliy qarashlarni o'zida aks ettiruvchi madaniyat va dunyoqarashning o'ziga xos ma'nolari, ikki til mentaliteti va hayot tamoyillaridagi o'xshashlik va farqlar haqida umumiy xulosalar kontekstlarda qo'llangan mazmun-mohiyati misollar yordamida keltirib o'tilgan.

**Аннотация**

В статье сравнительно исследуются выражения и пословицы с участием понятий «Небо», «Земля», специфические значения культуры и мировоззрения, отражающие национальные взгляды, сходство в менталитете и жизненных принципах двух языков, а общие выводы о различиях делаются на примерах контента, используемого в контекстах.

**Abstract**

In the article, the expressions and proverbs involving the concepts of "Heaven", "Earth" are comparatively studied, the specific meanings of the culture and worldview reflecting the national views, the similarities in the mentality and life principles of the two languages, and general conclusions about the differences are drawn using examples of the content used in the contexts.

**Kalit so'zlar:** xalqning turmush-tarzi, frazeologizm birlik tushunchasi, ma'no ifodalash, ijobiy va salbiy, komponentl o'rganish, axloqiy va ijtimoiy, qarama-qarshi ma'no, tarixiy asoslangan birliklar, rivojlanish, paydo bo'lish, o'xshashlik va farqlar.

**Ключевые слова:** быт народа, единство фразеологизма, концепт пословицы, выражение значения, положительное и отрицательное, компонент обучения, нравственное и социальное, противоположное значение, исторически обусловленные единицы, развитие, возникновение лишь, сходство и различие.

**Key words:** people's way of life, phraseologism unity, concept of proverb, expression of meaning, positive and negative, component learning, moral and social, opposite meaning, historically based units, development, emergence lish, similarities and differences.

**KIRISH**

Har bir tilda narsa va buyumlarga qo'yilgan nom bilan ataladi. Shu sababli insonlar bir-biri bilan muloqatga kirishganda har bir narsani o'z nomini nutqi orqali tushuntirishga kirishadi. "Osmon" kosmonimi haqida fikr yuritilganda birinchi navbatda xayolimizda osmonda joylashgan quyosh, yulduz, oy hamda "Yer" so'zi haqida fikr bildirilganda tuproq va yer yuzida joylashgan barcha narsalar haqida tushunchalarga ega bo'lamiz. Bu otlar insonlarning kundalik faoliyatida juda ham muhim o'rinn egallaydi. Bunday so'zlarni o'zbek va nemis tillarida o'rganish ikki xalqning turmush-tarzi, madaniyati, kundalik muomalada ifodalovchi tushuncha va urf-odatlarini o'zida jamlagan bir qancha frazeologizmlarni o'rganilgan taddiqotlar asosida qiyosiy ilmiy tahlil qilish hozirgi tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri deb hisoblaymiz.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel", o'zbek tilida "Yer", nemis tilida "die Erde" tushunchalari ishtirok etgan iboralar qiyosiy o'rganilganda odamlar o'tasidagi munosabatlar vaqtida vujudga keladigan ko'nikma hamda tushunchalarning muhim ekanligini ifodalaydi [1:708, 446].

Frazeologizm birliklarlarni o'rganib chiqish milliy qarashlarni o'zida aks ettiruvchi madaniyat va dunyoqarashning o'ziga xos ma'nolari, ikki til mentaliteti va hayot tamoyillaridagi o'xshashlik va farqlar haqida umumiy xulosalarga kelish imkonini beradi. Asrdan asrga o'tib kelayotgan xuddi shunday frazeologik birliklar tarixiy asoslangan birliklar bo'lib, ya'ni tilshunoslik rivojlanishining ma'lum davrlarida paydo bo'lgan qarashlarini o'zida aks ettiradi.

Bundan tashqari, bir qator o'zbek va nemis tillaridagi frazeologik birliklari diniy qarashlar ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar asosida shakllangan bo'lib, xalq axloqiy me'yorlarining yakuniy to'xtamga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tilidagi "osmon" tushunchasi ma'lum bir ma'noda harakatni baholashga xizmat qiluvchi birikmalarda amalga oshiriladi (osmon tutun bo'ladi, osmonni bulut qopladi, tiniq osmonda yulduzlar charaqlab turibdi, dudi osmonga chiqmoq, fig'oni osmonga chiqmoq, oyog'ini osmondan keltirmoq, osmonda yurmoq, osmondan kelmoq, osmondan olib gapirmoq, osmondan osilib tushmoq) [2:146].

O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel" tushunchalari frazeologizm birliklarda quyidagi tushuncha va ma'nolarni o'zida aks ettiradi degan xulosani belgilab beradi [3]:

1. Falak deb talqin qilinadi (eher stürzt der Himmel ein-osmon yerga tushadi).

2. Jannat – Xudo, farishtalar, najot topgan ruhlar va oliv saodatga erishish maskani (wie im Himmel leben - jannatdagidek yashamoq; den Himmel offen sehen - osmonni ochiq ko'rmoq, juda baxtli bo'lmoq, amalga oshishiga erishmoq, barcha istaklardan baxtli bo'lmoq).

3. Diniy yondoshilganda "der Himmel" va "Osmon" tushunchalari "o'lim" tushunchasi bilan bog'langan (in den Himmel auffahren - osmonga ko'tarilmoq).

4. Osmon mutlaq baxtning markazi, orzular va illyuziyalar olami sifatida qabul qilinadi (aus began Himmeln fallen - aus allen Himmeln stürzen - osmondan yerga tushmoq).

5. Osmon haqiqat va adolat ramzi sifatida talqin qilinadi (Es schreit zum Himmel! - Bu osmonga faryod qiladi!, die Heiligen vom Himmel herunter schwören - barcha azizlar bilan qasamyod qilmoq).

6. Jannatga erishib bo'lmaydigan narsa [das Blaue vom Himmel versprechen - osmondan oyni va'da qilmoq].

7. Kutilmaganda sodir bo'ladigan hodisalar samoviy hodisalar bilan bog'liq (wie ein Blitz aus heiterem Himmel - musaffo osmonni taqdim qilmoq).

8. "Osmon" va "Himmel" leksemalari g'ayritabiyy kuchlarni bildiruvchi so'zlarning evfemistik o'rnini bosuvchi sifatida ham ishlatiladi.

("oh" du lieber Himmel! - ("oh" ey aziz jannat!).

Grofier Himmel! - Buyuk jannat!).

O'zbek va nemis tillaridagi frazeologik sur'atlarda tasvirlangan yer haqidagi asosiy tushunchalar ko'p ma'noga ega bo'lib, bu quyidagi bir necha jamlanmalarni o'zida aks ettiradi [3]:

1. Inson organlarining jismoniy o'limi (in der kuhlen Erde liegen - zax tuproqda yotmoq).

2. Yerdagi hayot, "bu nur" (den Himmel auf Erden haben - yer ustida jannat bo'lsin).

3. Saqlash, yopish, berkitish, qopqoq (jemanden ware am liebsten in den Erdboden versunken - kimdir yerga botishni yaxshi ko'radi).

4. Qo'llash-yordamlashish, tayanch (kein Bein auf die Erde kriegen - bir oyog'ini yerga qo'yib bo'lmaydi;).

5. Davlat, aniq bir hudud, va'da qilingan joy; (soweit die Erde reicht - yerning so'nggi chekkasigacha).

6. Yer insonlarning tushunchasida sog'lom fikr, ob'yektiv jarayon (auf der Erde bleiben - yer yuzida qolmoq, yer bilan bog'lanmoq).

7. O'zbek tilda "Yer" va nemis tilida "die Erde" nomlari kutilmagan holda, juda ham tez, yo'q joydan paydo bo'ladigan jarayon yoki narsalar to'g'risida ham frazeologik birliklarda ifodalanadi (wie aus der Erde gewachsen - xuddi yerdan o'sib chiqqandek).

8. Dunyo tillarining lug'atdagi anglatgan ma'nosida yer mehnat (ko'p hollarda qishloq xo'jaligi), kuchli faoliyat (yerni qazish; yerga o'tirish, aksariyat hollarda kundalik faoliyattdagi dehqonchilik bilan band bo'lishi ifodalangan [4]).

Yuqoridagi misollarni qiyosiy tahlil qilganimizda „Osmon“, „Himmel“ va „Yer“, „Erde“ ma'nolari ikki halqning bir xil tushunchalariga ma'no jihatidan juda ham mos kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Har ikkala tilda ham ular „Yer“ „O'lim“ tushunchasi ifodalab keladi, ammo ular ifodalanish sohasiga qarab, bildirgan ma'nosining ba'zi qismlarida mazmunan farq qilishi mumkin. Osmonga qarashlilik ijobjiy xususiyat bo'lib, xursandchilik, mammunlik, xushchaqchaqlik mazmunlari sifatida qabul qilinadi, chunki diniy tomongan tana yerga, inson ruhi esa osmonga qarashlilik mazmuni ekanligini bildiradi.

Qiyosiy ko'rيلayotgan mazmunlarni ibora darajasida nutqqa aylantirilganda tilshunoslik tomonidan amalga oshirilishini belgilaydi. Bu esa alohida leksemalarni ma'lum ma'no va kontekstlarda foydalanish mumkin emasligi bilan bog'liq. Shunday hollarda "Osmon", "der Himmel" va "Yer", "die Erde" leksik birliklari iboralarda sinonim almashtirish vazifasini bajaradi.

## ILMIY AXBOROT

To'g'ridan-to'g'ri nomsziz "o'lim" ma'nolari, g'ayritabiyy kuchlardan qo'rqib allegorik burilishlardan foydalanish va boshqalar): jemanden deckt die Kuhle Erde- kimdir nam tuproqda uxlendi; jemanden unter die Erde bringen-kimnidir qabrga qo'yemoq; wieder zu Erde werden - yana tuproqqa aylanmoq, yerga kirmoq; in den Himmel auffahren - osmonga ko'tarilish; um Himmels willen - Xudo uchun! Himmel (Gott) behute! - Xudo saqlas! ach du lieber Himmel! - Voy Hudoyim! Grosser Himmel! - katta osmon! Samoviy kuchlar! va boshqalarni ifodalab keladi.

Frazeologik birliklarni o'rganish shuni ko'ssatadiki, o'zbek va nemis tillarida osmon va yer dunyo tushunchalari, bir tomordan, bir butunlikni tashkil qiladi (der Himmel und die Erde in Bewegung setzen - osmon va yer, dunyon aylantirish) va boshqa tomongan, ular bir-biriga antonimlik xususiyatiga egadir:

yer insonning yerdagi haqiqiy hayot bilan bog'liq bo'lib, bu yerda ehtiyyotkorlik va tirishqoqlik talab etiladi. Osmon bu o'rinda ilohiy borliq, illyuziya va orzular bilan bog'liq. "der Himmel – die Erde", "osmon – yer" qarama-qarshiliqi jismoniy ("baland"–"past", "uzoq"– "yaqin") va ma'naviy xususiyatlarni bildiradi, bu diniy tomoni borligi bilan bog'liq tushunchalar deb aytishimiz mumkin.

Osmon va yer osti dunyosini qarama-qarshi ma'noda ifodalovchi frazeologik birliklarning mavjudligi yerni "oltin o'rtacha", borliqning o'ziga xos markazi sifatida talqin qilishga imkon beradi: die Holle auf Erden haben - do'zaxdagidek yashamoq; den Himmel auf Erden versprechen-yerdagi jannatni va'da qilmoq.

Barqaror birikmalarning miqdoriy ustunligi nemis tilidagi "die Erde" komponentli frazeologik birliklar yer ustidagi "der Himmel" komponenti insonning yuksak ideallar timsoli sifatida samoviy sohalarga doimiy intilishi, "yerlik" bilan bog'liq kundalik hayotdan uzoqlashish istagi natijasidir. O'zbek tilidagi manbalarda "osmon" va "yer" tushunchalarini ifodalovchi taxminan teng miqdordagi frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular o'zbek xalqining qishloq xo'jaligi va uning bergen hosillariga uzoq vaqt davomida qaram ekanligi natijasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

### XULOSA

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turli nashrlarda to'planayotgan, chop etilayotgan frazeologizmlarning juda ham ko'p qismi faqat adabiy tilda shug'ullanuvchi doira vakillari va gumanitar ma'lumotga ega bo'lgan odamlarga ma'lum bo'lib, boshqa ona tilida so'zlashuvchi oddiy shaxslar tomonidan deyarli foydalanilmaydi. Biroq, iboralar passiv, foniyl bilimlarning bir qismi bo'lib, milliy psixologiya, falsafa, madaniyat va mentalitet haqida muhim ma'lumot manbai bo'lib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida "Osmon", nemis tilida "der Himmel", o'zbek tilida "Yer", nemis tilida "die Erde" haqidagi iboralarni qo'llanilish sohasidagi turli ma'nolarini o'quvchilar uchun har ikki tilda ham ko'proq o'rganib borishlari maqsadga muvofiq.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G. Drosdowski DUDEN- Deutsches Universalwörterbuch.Mannheim-1989. B.708, 446.
2. А.Мадвалиев таҳрири остида. Ўзбек тилининг изоҳли луғати [Толковый словарь узбекского языка] Тошкент нашри Б.146.
3. Кривалева О.В. концепты «небо» и «земля» в русской и немецкой языковых картинах мира Уфа 2008, С. 18.
4. <https://burido.ru/641-frazeologizmy-s>.